



BIZNESNI SAMARALI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Nazarkasimova Iroda Maxmarayimovna

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tinglovchisi

Annotatsiya: O‘zbekistondagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarni boshqarish va uning qiymatini oshirish bo‘yicha mavjud salohiyatdan yetarli darajada foydalanmaslik ularning boshqaruv faoliyatida yangicha yondashuvlar, vositalar va boshqaruvning zamonaviy modellaridan foydalanishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan, mavjud budjet cheklovlari va raqobat muhitining ta’sirini hisobga olgan holda, maksimal iste’molchi va qo‘shilgan qiymatga ega brendni rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etishning nazariy va uslubiy yondashuvlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: boshqaruv strategiyasi, raqamlashtirish, raqamli platforma, biznes jarayonlar.

Kirish. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tkazish maqsadida amalga oshirilayotgan istlohotlarga ustuvorlik qaratilib kelinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida “...biz O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz”[1], deb aytgan fikrlari keyingi yillarda mamlakatimizda milliy iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan, sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini



takomillashtirishning uslubiy asoslarini tadqiq etish dolzarb va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

O'zbekistondagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarni boshqarish va uning qiymatini oshirish bo'yicha mavjud salohiyatdan yetarli darajada foydalanmaslik ularning boshqaruv faoliyatida yangicha yondashuvlar, vositalar va boshqaruvning zamonaviy modellaridan foydalanishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan, mavjud budjet cheklovlari va raqobat muhitining ta'sirini hisobga olgan holda, maksimal iste'molchi va qo'shilgan qiymatga ega brendni rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etishning nazariy va uslubiy yondashuvlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlariga innovatsion loyihalarni joriy etishni jadallashtirish, jumladan, sanoat korxonalari tomonidan innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish, boshqaruvga oid innovatsiyalardan amaliyotda keng foydalanish hisobiga yuqori iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishish, shuningdek, O'zbekistonning global reytinglardagi ko'rsatkichlarini yanada oshirishga qaratilgan hisoblanadi. Xususan, mamlakatimiz hukumati tomonidan 2030 yilga borib Global innovatsion indeks xalqaro reytingi ko'rsatkichlari tizimida jahonning yetakchi 50 ta mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish bo'yicha uzoq muddatli strategik vazifasi belgilangan[2].

Bu holatlar mahalliy ishlab chiqarish va savdo korxonalari faoliyatida boshqaruv strategiyasini ishlab chiqish va uni qiymatini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasini 2030 yilgacha barqaror rivojlantirishning strategik yo'nalishlarida bu boradagi vazifalar belgilangan bo'lib, ularning ijrosini ta'minlash bo'yicha sa'y-harakatlar tobora kuchaytirilmoqda. Bu jarayonda, "O'zbekiston-2030" strategiyasida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, sanoatning yetakchi



tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, mahalliy mahsulotlarni yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarish va ularning raqobatdoshligini oshirish muhim yo'nalishlar sifatida belgilangan[3]. Mazkur vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash esa oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirishda boshqaruv strategiyasini ishlab chiqishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Xususan, jahonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash global muammo sifatida qaralayotgan bir vaqtda, iste'mol uzluksizligi va talabni maqsadli qondirishda oziq-ovqat sanoatini samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. AQSh davlat departamenti, Jahon banki, "Cargill" transmilliy kompaniyasi va boshqa ekspertlarning global oziq-ovqat tovarlari bozorining 2020-2030 yillardagi holati bo'yicha prognozlariga ko'ra, oziq ovqat tovarlari bozorida inqirozli jarayonlar kuzatilishini e'tirof etmoqdalar. Oziq-ovqat mahsulotlari yirik ishlab chiqaruvchilari fikrlariga ko'ra, (FEMA) "mahsulot ishlab chiqarish va zaxiralarining bir foizga qisqarishi, mahsulotlarning bozor narxlarini 395 foizga oshirishi mumkin"ligi bo'yicha xulosalar bermoqda. COVID-19 koronavirus pandemiyasi sharoitida, ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlari import qiluvchi mamlakatlarda oziq-ovqat xavfsizligi muammosi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning bosh muammosi sifatida qaralmoqda.

Korxonalar boshqaruvining nazariy asoslari hamda ularning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalari xorijiy mamlakatlarda P.Druker, K.Gerasimov, O.Gorb, I.Yasnolob, N.Protsiuk, K.Kutran, E.Xargadon, L.Vodachek va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

Korxonalar, jumladan, oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga munosib hissa qo'shgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari iqtisodchi olimlari qatoriga V.M.Bautin, M.A.Shatalov, S.V.Zdolnikova,



A.A.Kerashev, R.A.Baybekova, A.A.Poluxin, V.F.Tsaxilova, G.S.Seyalova, N.P.Shilova va boshqalarni kiritish mumkin.

O'zbekistonda korxonalar boshqaruvi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning umumiy muammolarini o'rganish bo'yicha Sh.N.Zaynutdinov, N.M.Rasulov, A.Sh.Bekmurodov, Z.A.Baltasheva, Sh.I. Otajonov, I.Y.Umarov, I.H.Boboyev, D.N.Saidova, O.Sh.Ismailov, I.U. Ibragimov, B.A.Sersenbayev, U.N.Sadullayev, O.Dj.Djurabayev, M.A. Masharipova va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar. Ammo oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq masalalar yetarlicha o'rganilmaganligi mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi. Bu mazkur tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot metodikasi. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, omilli tahlil, so'rov, tanlanma kuzatuv, grafik talqin, ekspert baholash, SWOT- tahlil singari usullardan foydalanildi.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotining barqaror va mutanosib rivojlanishi, jahon bozorida mustahkam o'rin egallashi, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholining turmush darajasi va farovonligini yanada oshirish, olib borilayotgan iqtisodiy siyosatining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu esa jahon iqtisodiyotining globallashtirish ko'lamini tobora kengayib borayotgan bir sharoitda har qanday konyunkturaviy o'zgarishlarga qarshi tura oladigan, ichki va tashqi bozor talablariga tezlik bilan moslasha oluvchi korxonalarni shakllantirishni taqozo etadi. Shuning uchun oziq-ovqat sanoat korxonalari boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda mahsulot va xizmat turlarini muttasil yangilab borish hisobiga raqobatbardoshlikni ta'minlovchi boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish zarur.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga keng kirib bordi va uning ko'lamini kundan-kun kengayib bormoqda.



Globallashuv sharoitida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish nafaqat alohida iqtisodiy tizimlar, balki umumdavlat darajasidagi vazifaga aylandi. Shuni hisobga olgan holda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, shuningdek, oziq-ovqat sanoat korxonalari boshqaruvida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Respublikada raqamli industriyani jadal rivojlantirish, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrda «Raqamli O'zbekiston - 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Sanoat korxonalari boshqaruvining raqamlashtirilishi bu sanoat ishlab chiqarish sohasida uning samaradorligini oshirishga va aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgan raqamli texnologiyalarni qo'llash jarayonidir. Hozirgi kunda iqtisodiyotni raqamlashtirish, aynan, aqlli ishlab chiqarishga, ya'ni Sanoat 4.0. ga o'tish eng dolzarb jahon trendi sanaladi. Shu sababli O'zbekistonda ham oziq-ovqat sanoati korxonalari boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizimlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish ustuvor vazifa qilib belgilangan.

Raqamli iqtisodiyot - bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirish nazarda tutadi. Ba'zida u "internet iqtisodiyoti" yoki "veb-iqtisodiyot" degan atamalar bilan ham ifodalanmoqda. 1995 yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte «raqamli iqtisodiyot» terminini amaliyotga kiritdi. Hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar - deyarli barcha qo'llamoqda.

Raqamli iqtisodiyot - bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari - AKTga asoslangan iqtisodiyotdir. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) uni



elektron ma'lumot almashish, uni qayta ishlash va boshqarishni ta'minlaydigan yoki yaratadigan korxonalar deb tasniflaydi [4].

Bugungi kunda sanoati korxonalari boshqaruv jarayonlari raqamli texnologiyalarga muhtoj. Jahonda sanoat korxonalar boshqaruvi keng qamrovli raqamli transformatsiyadan o'tmoqda. Yirik korporatsiyalar mahsulot brendini yaratishda raqamli texnologiyalarga murojaat qilib, boshqaruvning innovatsion usullarini joriy qilgan holda boshqaruv samvrvdorligiga erishishmoqda.

Aqlli sensorlar ushbu ma'lumotlarni avtomatik ravishda turli xil tahlil usullari yordamida ma'lumotlarni baholaydigan va tarixiy ma'lumotlarga bog'laydigan IT tizimiga uzatadi. Ushbu tahlillar operatsiyalarni jihozlarning umumiy samaradorligidan yenergiya ma'lumotlarini boshqarishgacha qanday yaxshilash mumkinligi to'g'risida qimmatli tushunchalarni beradi. Ushbu ma'lumotlarning barchasi bulutga yuklanishi mumkin, u yerdan istalgan vaqtda va istalgan joyda kirish imkoniyatiga erishiladi va malumotlar bazasi asosida kelajakda korxona faoliyatining takomillashtirish choralari ishlab chiqish imkoni yaratiladi.

Korxona boshqaruviga mo'ljallangan standartlashtirilgan dasturiy platformalar asosida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning barcha jihatlarini boshqarishi mumkin. Bu ogohlantirish, xabar almashish, hisobot berish va boshqa qo'shimcha funksiyalarni bajarishi mu'kin. Ushbu texnologiyalarning sanoat korxonalarini boshqarish uchun ahamiyati ishlab chiqarishning deyarli barcha yo'nalishlariga taalluqlidir. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash jarayonlarini optimallashtirishga muhim hissa qo'shadi. Raqamli texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, energiya sarfini keskin kamaytirishi va mahsulot sifatini yaxshilanishiga erishish mumkin.

Oziq-ovqat sanoati korxonalari boshqaruvida raqamli texnologiyalardan foydalanishda quyidagi afzalliklarga erishiladi:



1. Mahsulot sifati yaxshilash bo'yicha: oziq-ovqat sanoatida mahsulotlar odatda yuqori sifat standartlari va ko'rsatmalariga javob berishi kerak. Sanoatdagi ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarining iste'molchilarga yaroqliligini ta'minlash uchun o'z jarayonlarini qat'iy nazorat qilishlari kerak. Raqamli texnologiyalar orqali sifat kafolatga erishiladi va umumiy mahsulot sifatini oshirish, yaxshilash chora-tadbirlarini amalga oshirishga yordam beradi. Shuningdek, boshqaruvdagi raqamli texnologiyalar ma'lumotlar bazasi sifatni ta'minlash uchun juda muhimdir va ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq turli xil ma'lumotlarni kuzatish va baholash imkonini yaratadi. Bu esa, o'z navbatida sifat muammolarini keltirib chiqaradigan og'ishlarni aniqlash imkoniyatini beradi va ushbu muammolarni tezda bartaraf yetishga, ko'p vaqt va pulni tejashga imkon beradi. Bu, ayniqsa, oziq-ovqat sanoati korxonalarida mahsulot birin-ketin emas, balki partiya shaklida ishlab chiqarishda juda muhimdir.

Bundan tashqari, korxona boshqaruvchilari o'zlarining ma'lumotlari va tegishli tahlil texnologiyalaridan foydalanib, mahsulot sifatini yaxshilash yo'llarini topishlari va amaldagi sifat standartlariga javob berish uchun jarayonlarni har tomonlama nazorat qilishlari mumkin. Tarixiy ma'lumotlarni tahlil qilish ko'pincha sifatni optimallashtirish bo'yicha ko'rsatmalar beradigan va ishlab chiqarish jarayonlarini tez va agar kerak bo'lsa, masofadan moslashtirishga yordam beradigan imkoniyatlarni ochib beradi.

2. Optimallashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari bo'yicha: raqamli texnologiyalarga asoslangan liniyalarni boshqarish ishlab chiqarish liniyalarining shaffofligini oshiradi. Shu bilan birga, menjerlar o'zlarining natijalarini yaxshilash uchun kerakli o'zgarishlarni amalga oshirishlari uchun ko'proq nazoratga yega bo'ladilar. Bundan tashqari bashoratlash funksiyasini ham bajaradi. Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari uchun ideal vaqtni aniqlayadi va shu tarzda, texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini qisqartirish, ishlamay qolish vaqtini kamaytirish va tizimlarning unumdorligini oshirishga erishiladi. Shuningdek,



bashoratlash asosida uskunalarning umumiy samaradorligi, hujjat ishlarining yuritilishi va ish oqimini boshqarishni jarayonlarining optimallashtirishiga erishiladi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etishda korxonalarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tushunchalarining evolyutsiyasi **1-jadval**

Muallif	Ta'rifi
Raysberg B.A.	Tashkiliy tuzilmalar, shuningdek boshqaruv usullari va huquqiy normalar to'plami iqtisodiy qonunlar va takror ishlab chiqarish jarayoni amalga oshiriladi
Slepov V.A., Burlachkov V.K., Ordov K.V.	Iqtisodiy mexanizm axborot va funksional yondashuvlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqilib, ularning cheklovlarini bartaraf etish uchun mualliflar integralni taklif qilishadi yondashuv
Stogul O.I.	Boshqaruv funksiyalaridan foydalangan holda, usul va usullarning ajralmas tizimi, shuningdek sanoat korxonalarida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar va korxonaning samarali faoliyati uchun jarayonlarga ta'sir o'tkazish vositalari.
Fedorkevich V.F., Achkasov A.T., Kruk A.T.	Kompyuter texnologiyalari, iqtisodiy-matematik usullar va axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan boshqaruv tizimi. Boshqaruvni avtomatlashtirish birinchi navbatda integratsiyaga qaratilgan zamonaviy ishlab chiqarish tizimlarining yeng muhim xususiyatlaridan biridir.

3. Integratsiyalashgan funksiyalar boshqaruvi. Oziq-ovqat sanoati qishloq xo'jaligi, chorvachilik xo'jaligi, baliqchilik xo'jaligi kabi ko'plab tarmoqlarni inson omili bilan bog'lovchi murakkab jarayondir. Raqamli texnologiyalar bu jarayonlar ma'lumotlarni bir joyda birlashtirish, boshqarish yoki o'zgartirishga imkon beradi. Markaziy tizim yordamida korxona menjerlari barcha tegishli ma'lumotlarni istalgan joydan ko'rishlari va masofadan turib kerakli sozlashlarni amalga oshirishlari mumkin (1-jadval).



Hozirgi davrda jahon iqtisodiyoti taraqqiyotining eng salmoqli jarayonlaridan biri sanoat korxonalari boshqaruv faoliyati bo'lib, boshqaruvning innovatsion usullari xo'jalik faoliyatining rivojlanishida sifat jihatdan yuqori samaradorlikka erishishda asosiy omillardan biri sanalmoqda. Endilikda ko'pgina ijtimoiy-iqtisodiy munozaralarda boshqaruv bilan bog'liq masalalar, ularni ilmiy tadqiq etish, xususan, ishlab chiqarishda yangiliklarni joriy etish, fan sig'imi yuqori mahsulotlarni ishlab chiqarish dolzarb mavzuga aylanib bormoqda.

Jumladan, oziq-ovqat sanoat korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini nazariy-uslubiy asoslari bilan bog'liq masalalar tobora kuchayib borayotgan raqobat shartlari va tez o'zgaruvchan bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashuvchanlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki mamlakatning oziq-ovqat bozorlari to'yinganlik darajasi undagi faoliyat yuritayotgan turli mulk shaklidagi oziq-ovqat sanoat korxonalari boshqaruv strategiyalari va uning ko'rsatkichlari orqali belgilanadi.

Jahon xo'jaligining globallashuv sharoitida mamlakatlarda iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish, xususan, sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish - yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishning muhim sharti sifatida baholanmoqda. "Global innovatsion indeks - 2021" ma'lumotlariga ko'ra, sanoat korxonalari innovatsion boshqaruvi samaradorligini tavsiflovchi "Biznes sofistikasi", jumladan bilim va innovatsiyalarni uzatish bo'yicha Shvetsiya, AQSh, Shveytsariya kabi mamlakatlar yetakchi o'rinlarni egallagan holda, mazkur mamlakatlarda innovatsion iqtisodiyot hisobiga YaIMning 70 foizdan ortiq qismi yaratiladi[5]. Ushbu holat taraqqiy etgan mamlakatlarda sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi samaradorligini oshirishga ustuvorlik qaratilishidan dalolat beradi.

Jahon amaliyoti tahliliga ko'ra, taraqqiy etgan mamlakatlarda milliy iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion boshqaruvning uzluksiz ravishda amaliyotga tatbiq etib borilishi, mamlakatlar iqtisodiyotining global raqobatbardoshligi ko'rsatkichlarini yanada



yaxshilanishiga olib kelmoqda. Shuningdek, ushbu mamlakatlarda sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishda innovatsion ishlanmalarga asoslanish, tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan qurollantirish hisobiga ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlari barqaror rivojlanish tendensiyasiga ega bo'lib kelmoqda. Shu sababli, iqtisodiy adabiyotda sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning uslubiy asoslarini tadqiq etishga oid ilmiy izlanishlar soni ortib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Oliy majlisga murojaatnomasi
<https://uza.uz/uz/posts/zbekistonrespublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF5544-son Farmoni, 21.09.2018 y. <https://lex.uz/ru/docs/3913188>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi « O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-58-sonli farmoni.
4. Ефимушкин В.А., Ледовских Т.В., Щербакова Е.Н. Инфокоммуникационное технологическое пространство цифровой экономики // Телекоммуникации и транспорт. 2017. Том 11. №5. С.15-20.
5. Global Innovation Index 2021: Tracking Innovation through the Covid-19 Crisis / World Intellectual Property Organization, 2021. – p. 226. https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_gii_2021.pdf
6. Abduvoxidov A., Kamilova S. INSON KAPITALINING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – T. 1. – №. 2. – С. 5-14.